



BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA O‘QUVCHILAR IJODKORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

Saidaxmadova N.S.

Termiz davlat pedagogika instituti “Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: kreativlik, o‘qish savodxonligi, PIRLS, kitobxonlik, to‘g‘ri va ifodali o‘qish, grammatik savodxonlik, nutq madaniyati, mustaqil fikrlash, boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darslari, ijodkorlik, shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim texnologiyalari, xalq pedagogikasi, o‘yin texnologiyalari, pedagogik jarayon.

Ключевые слова: творчество, грамотность чтения, PIRLS, чтение, аккуратное и выразительное чтение, грамматическая грамотность, культура речи, самостоятельное мышление, начальные занятия по родному языку и грамоте чтения, творчество, личностно-ориентированные образовательные технологии, народная педагогика, игровые технологии, педагогический процесс.

Key words: creativity, reading literacy, PIRLS, reading, accurate and expressive reading, grammatical literacy, speaking culture, independent thinking, elementary mother tongue and reading literacy classes, creativity, person-oriented educational technologies, folk pedagogy, game technologies, pedagogical process.

Kirish. Mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yangi davriga qadam qo‘ygan hozirgi kunda islohotlarning muvaffaqiyati, mamlakatimizning dunyodagi rivojlangan, zamonaviy davlatlar qatoridan munosib o‘rin egallashi, avvalo, ilm-fan va ta‘lim-tarbiya sohasining rivoji bilan, bu borada bizning dunyo miqyosida raqobatdosh bo‘la olishimiz bilan uzviy bog‘liq.

Yoshlarni komil insonlar qilib voyaga yetkazish jamiyatimiz ijtimoiy hayotidagi muhim vazifalardan biridir. Shu o‘rinda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning “Biz uchun o‘z dolzarbligi va ahamiyatini yo‘qotmaydigan yana bir masala, bu – farzandlarimizni mustaqil fikrli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash vazifasidir” degan fikrlarini keltirmoqchiman. Darhaqiqat, bilim qanchalik mustahkam bo‘lsa, o‘quvchi dunyoqarashi, intellektual salohiyati



shunchalik rivojlanadi va kamol topadi. Hozirgi kunda o'quvchilar uchun informatsion savodxonlik ta'lim samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi. O'qish savodxonligi faniga oid kompetentsiyalarning mazmun mohiyat.

O'qish fani, asosan, badiiy uslubdagi, mavhum tushunchalarni tashiydigan matnlardan iborat edi. Yangi darslik uchun tanlangan matnlar va she'rlar esa bolaning ijtimoiy hayotga kirishib keta olishida ko'maklashadigan, ham badiiy, ham informativ, ham ilmiy-ommabop uslubdagi matnlardan iborat.

Amaldagi darsliklarda tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirish uchun topshiriqlar ajratilmagan bo'lsa, yangisida bu kompetensiyasini rivojlantirish uchun har bir mavzuga alohida topshiriqlar ishlab chiqilgan.

O'qib tushunish kompetensiyasini rivojlantirish uchun ajratilgan topshiriqlar esa, asosan, matnda ochiq ifodalangan ma'lumotlarga, yoki didaktik elementlarga qaratilar edi. Endi esa darslikda o'qib tushunish kompetensiyasining barcha qismlarini qamrab oladigan savol va topshiriqlar bo'ladi.

Shu paytgacha ona tilini o'qitishdan maqsad tilning grammatikasini o'rgatish, til strukturasi o'qoidalarni yod oldirish edi. Yangi darslikda eng muhim qoidalargina qoldirilgan. Rang-barang tasvirlar va qiziqarli topshiriqlarga ko'proq urg'u berilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ahamiyatli tomoni endi o'qituvchilar uchun "O'qituvchi kitobi", o'quvchilar uchun esa "Mashq daftari" ham bo'ladi. Eski darsliklar til strukturasi o'rgatishga qaratilgan. Yangi darsliklarda esa til strukturasi ko'ra, tilning leksikologik, semantik tomonlariga urg'u berilgan. Ya'ni asosiy e'tibor so'z, uning ma'nolari, o'rindoshlari, qo'llanish o'rinlari, lug'at boyligi kabi tomonlarga qaratilgan.

Amaldagi darslikdan o'rin olgan matnlarda bola yoshiga mos bo'lishidan ko'ra, didaktik ahamiyatiga urg'u berilgan. Taqdim etilayotgan didaktika esa yoshga mos, qiziqarli mavzulardagi matnlar hamda she'rlarga singdirilgan. Yozuvchilar bilan birgalikda matnlar qayta ishlab chiqilgan.

Darsliklardagi tushunarsiz bo'lishi mumkin bo'lgan so'zlar izohsiz qoldirilgan edi. Yangi darsliklarda bolaning tushunishi uchun qiyin bo'lgan so'zlar darslikning orqa qismida maxsus lug'atga joylashtirilgan. Bundan tashqari ular ustida alohida mashqlar ishlab chiqilgan.

Tayyorlanayotgan darslikda gapdan to yaxlit matn yaratishgacha bo'lgan jarayon tizimli ravishda ishlab chiqilgan. Avval gaplardagi bo'sh o'rinlarni to'ldirishni boshlagan bola ma'lum mavzu doirasida kichik matn yarata olish darajasiga olib chiqiladi.

Shuningdek, darslikda o'quvchilarning eng og'riqli muammosi bo'lgan og'zaki javob beriladigan, og'zaki tarzda bajariladigan alohida topshiriqlar ham



ishlab chiqilgan. Yodlash uchun berilgan she'rni aytib berishlari uchun alohida vaqt ajratilgan.

Yangi darslikda uyga vazifalar mavjud emas. Nutqiy mavzular asosida izchillikda bir-birini to'ldiradigan, o'zi izlanib topishga qaratilgan nostandart mashq va topshiriqlar ishlab chiqilgan. Ma'lum mavzu doirasida assotsiativ tasavvur darajasidan og'zaki yoki yozma matn yaratish darajasiga olib chiqishga qaratilgan ta'lim mazmuni ishlab chiqilgan. Badiiy matnlar bilan ishlashda muallifning so'z qo'llash mahorati amaliy topshiriqlar orqali ochib berilgan.

Boshlang'ich sinflarda ona tilidan beriladigan bilimlar mazmunini o'zbek tilining tovush tuzilishi va yozma nutqda tovushlarni ifodalash usullari haqidagi, so'zlarning o'zgarishi va gapda so'zlarning bog'lanishi haqidagi, so'zlarning morfemik tarkibi va so'z yasalishi, so'zlarning leksik - semantik guruhi haqidagi, o'zbek tilining to'g'ri yozuv qoidalari va tinish belgilarining ishlatilishi haqidagi bilimlar tashkil etadi. Berilgan bu bilimlar o'quvchilar nutqini o'stirishga xizmat qiladi.

Umumiy o'rta ta'limning boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish savodxonligi fani o'quvchilarni ongli, to'g'ri va ifodali o'qishga o'rgatish bilan birga ularda kitobxonlik va nutq madaniyatini hamda mustaqil fikrlash qobiliyati shakllantiradi. O'quvchilarni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi. Ona tili va o'qish savodxonligi fanini o'qitishning mazmuni va metodlari o'quvchilarga dastur talab qilgan hajmda puxta bilim berish, ko'nikma va malakalar hosil qilishga ko'maklashishi lozim.

Maktabni bitirib chiqqan yoshlar ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotning rang - barang jabhalarida, muloqot va munosabatning barcha turlarida o'zbek tilidan bemalol - erkin, samarali va to'g'ri foydalana olish, uning cheksiz imkoniyatlaridan to'laqonli bahramand bo'lish, zaruriy ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari kerak.

Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga yo'naltirish lozim. Shuning uchun o'quv dasturi va u asosida yaratiladigan darsliklarda grammatik qoidalarni yodlatishdan voz kechish, ijodiy tafakkur tarzini shakllantirish, dars va mashg'ulotlarni o'quvchilarning nutqiy malakasini yuzaga keltirishga qaratish maqsad qilib olindi.

Bolaning matn mazmunini to'liq o'qib olishi, qayta hikoyalashi, shuningdek, o'zgaralar nutqini eshitib, tushunib olishi maqsad qilinadi.

Ona tili va o'qish savodxonligi fanini o'qitishda asosiy e'tibor o'quvchida tilga doir to'rt ko'nikma: o'qib tushunish, tinglab tushunish, nutq so'zlash va yozish hamda grammatik savodxonlikni shakllantirishga qaratiladi.

Tahlil va natijalar. Ta'lim jarayonida o'quvchilar voqea-hodisalarni kuzatish, anglash, qiyoslash, analiz va sintez qilishga o'rgatish orqali ijodiy va tanqidiy



tafakkurini, fikrlash doirasini rivojlantirish muhim aha-miyatga ega. Ona tili va o'qish savodxonligi fani ushbu maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Ona tili va o'qish savodxonligi fani o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgalari fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani rivojlantirishga;

- o'quvchilarda grammatikaga oid bilimlarni (fonetika, leksikologiya, so'zning tarkibi, so'z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) shakllantirish va rivojlantirish hamda ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda o'qigan, ko'rgan, eshitganlarini nutqiy to'g'ri va ravon bayon eta olish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishga;

- milliy hamda jahon adabiyotining nodir namunalarini o'qitish orqali o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy dunyosi, adabiy-estetik didini shakllantirish hamda ularda mustaqil fikrlash, obrazli tafakkurga oid bilim, ko'nikma, malakalarni hosil qilish va rivojlantirishga;

- o'quvchilarni badiiy adabiyotga qiziqtirish, asarlarni o'rgatish jarayonida olam va inson tabiati, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar, shuningdek, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish orqali o'quvchilarning ma'naviyatini, dunyoqarashini kengaytirib, mustahkamlab borishga qaratilgan.

Ta'limning zamonaviy globallashuv va axborotlashuv sharoitida rivojlanishi va takomillashuvini innovatsiyalarning turli shakllarini tadbiq etmasdan, bugungi kunda mutaxassisdan nimaga va qanday tayyorlashga bir qator yondashuv va munosabatlarni tamoillar asosida ko'rib chiqmasdan amalga oshirish mumkin emas. Ijodkor shaxsning shakllanishi shaxsning o'zaro mos tarzda bajariladigan ijodiy faoliyat va ijodiy mahsulotlarni yaratish borasidagi rivojlanishi sifatida belgilash mumkin. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ sifatlarni rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini to'laqonli anglash uchun dastlab "kreativlik" tushunchasining ma'no mazmuni tushunib olish talab etiladi.

O'qish savodxonligi fani, asosan, badiiy uslubdagi, mavhum tushunchalarni tashiydigan matnlardan iborat edi. Yangi darslik uchun tanlangan matnlar va she'rlar esa bolaning ijtimoiy hayotga kirishib keta olishida ko'maklashadigan, ham badiiy, ham informativ, ham ilmiy-ommabop uslubdagi matnlardan iborat.

Amaldagi darsliklarda tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirish uchun topshiriqlar ajratilmagan bo'lsa, yangisida bu kompetensiyasini rivojlantirish uchun har bir mavzuga alohida topshiriqlar ishlab chiqilgan.

O'qib tushunish kompetensiyasini rivojlantirish uchun ajratilgan topshiriqlar esa, asosan, matnda ochiq ifodalangan ma'lumotlarga, yoki didaktik elementlarga qaratilar edi. Endi esa darslikda o'qib tushunish kompetensiyasining barcha qismlarini qamrab oladigan savol va topshiriqlar bo'ladi.



Shu paytgacha ona tilini o'qitishdan maqsad tilning grammatikasini o'rgatish, til strukturasi o'qidalarni yod oldirish edi. Yangi darslikda eng muhim qoidalarga qoldirilgan. Rang-barang tasvirlar va qiziqarli topshiriqlarga ko'proq urg'u berilgan.

Ahamiyatli tomoni endi o'qituvchilar uchun "O'qituvchi kitobi", o'quvchilar uchun esa "Mashq daftari" ham bo'ladi. Eski darsliklar til strukturasi o'rgatishga qaratilgan. Yangi darsliklarda esa til strukturasi ko'ra, tilning leksikologik, semantik tomonlariga urg'u berilgan. Ya'ni asosiy e'tibor so'z, uning ma'nolari, o'rindoshlari, qo'llanish o'rinlari, lug'at boyligi kabi tomonlarga qaratilgan.

Amaldagi darslikdan o'rin olgan matnlarda bola yoshiga mos bo'lishidan ko'ra, didaktik ahamiyatiga urg'u berilgan. Taqdim etilayotgan didaktika esa yoshga mos, qiziqarli mavzulardagi matnlar hamda she'rlarga singdirilgan. Yozuvchilar bilan birgalikda matnlar qayta ishlab chiqilgan.

Darsliklardagi tushunarsiz bo'lishi mumkin bo'lgan so'zlar izohsiz qoldirilgan edi. Yangi darsliklarda bolaning tushunishi uchun qiyin bo'lgan so'zlar darslikning orqa qismida maxsus lug'atga joylashtirilgan. Bundan tashqari ular ustida alohida mashqlar ishlab chiqilgan.

Tayyorlanayotgan darslikda gapdan to yaxlit matn yaratishgacha bo'lgan jarayon tizimli ravishda ishlab chiqilgan. Avval gaplardagi bo'sh o'rinlarni to'ldirishni boshlagan bola ma'lum mavzu doirasida kichik matn yarata olish darajasiga olib chiqiladi.

Shuningdek, darslikda o'quvchilarning eng og'riqli muammosi bo'lgan og'zaki javob beriladigan, og'zaki tarzda bajariladigan alohida topshiriqlar ham ishlab chiqilgan. Yodlash uchun berilgan she'rni aytib berishlari uchun alohida vaqt ajratilgan.

Yangi darslikda uyga vazifalar mavjud emas. Nutqiy mavzular asosida izchillikda bir-birini to'ldiradigan, o'zi izlanib topishga qaratilgan nostandart mashq va topshiriqlar ishlab chiqilgan. Ma'lum mavzu doirasida assotsiativ tasavvur darajasidan og'zaki yoki yozma matn yaratish darajasiga olib chiqishga qaratilgan ta'lim mazmuni ishlab chiqilgan. Badiiy matnlar bilan ishlashda muallifning so'z qo'llash mahorati amaliy topshiriqlar orqali ochib berilgan.

Boshlang'ich sinflarda ona tilidan beriladigan bilimlar mazmunini o'zbek tilining tovush tuzilishi va yozma nutqda tovushlarni ifodalash usullari haqidagi, so'zlarning o'zgarishi va gapda so'zlarning bog'lanishi haqidagi, so'zlarning morfemik tarkibi va so'z yasalishi, so'zlarning leksik – semantik guruhi haqidagi, o'zbek tilining to'g'ri yozuv qoidalari va tinish belgilarining ishlatilishi haqidagi bilimlar tashkil etadi. Berilgan bu bilimlar o'quvchilar nutqini o'stirishga xizmat qiladi.



Umumiy o‘rta ta’limning boshlang‘ich sinflarda ona tili va o‘qish savodxonligi fani o‘quvchilarni ongli, to‘g‘ri va ifodali o‘qishga o‘rgatish bilan birga ularda kitobxonlik va nutq madaniyatini hamda mustaqil fikrlash qobiliyati shakllantiradi. O‘quvchilarni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi. O‘qish savodxonligi fanini o‘qitishning mazmuni va metodlari o‘quvchilarga dastur talab qilgan hajmda puxta bilim berish, ko‘nikma va malakalar hosil qilishga ko‘maklashishi lozim.

Maktabni bitirib chiqqan yoshlar ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotning rang - barang jabhalarida, muloqot va munosabatning barcha turlarida o‘zbek tilidan bemalol - erkin, samarali va to‘g‘ri foydalana olish, uning cheksiz imkoniyatlaridan to‘laqonli bahramand bo‘lish, zaruriy ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari kerak.

O‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga yo‘naltirish lozim. Shuning uchun o‘quv dasturi va u asosida yaratiladigan darsliklarda grammatik qoidalarni yodlatishdan voz kechish, ijodiy tafakkur tarzini shakllantirish, dars va mashg‘ulotlarni o‘quvchilarning nutqiy malakasini yuzaga keltirishga qaratish maqsad qilib olindi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘qish savodxonligi fanini o‘qitishning maqsadi - o‘quvchilarda og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmasini, ijodiy fikrlash malakasini, kitobxonlik va nutq madaniyatini rivojlantirishdan iborat.

Kreativlik (lot, ing “create” – yaratish, “creative” – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi go‘yalarini ishlab chiqarishga tayyorgarlikni tafsivlovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyatidir. Har bir boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘z mutaxassisligini chuqur bilishi, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilishi, uslubiy madellarni to‘g‘ri tanlash qobiliyati, ta’lim jarayonidagi ta’sir mazmuni va usullarini loyihalashni bilishi zarur. Shundagina yetuk mutaxassis bo‘lishi mumkin.

Xulosa. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kreativlik sifatlarni amalga oshirishda jamoaning o‘rni beqiyos. Bunda o‘qituvchi o‘quvchilar jamoasini ijtimoiy ahamiyatga ega yagona maqsadni ko‘zda tutuvchi, birgalikdagi faoliyatni tashkil etuvchi, umumiy saylab qo‘yilgan organiga ega bo‘lgan, mustahkamlik, umumiy javobgarlik bilan ajralib turuvchi, barcha a‘zolarining huquq va majburiyatlarda tengligi sharoitida majburiy aloqadorlikka ega bo‘lgan o‘quvchilar guruhni tashkil qilishda ijodiy yondashgan holda amalga oshirsa ko‘zlagan maqsadga erishiladi.

O‘qituvchining ijodkorligini namoyon qiladigan jarayon bu – darsdir. Dars bevosita o‘qituvchi rahbarligida aniq belgilangan vaqt davomida muayyan o‘quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta’lim jarayonining asosiy shakli sanaladi. Darsda har bir o‘quvchi xususiyatlarini hisobga olish, barcha



o'quvchilarning mashg'ulot jarayonida o'rganilayotgan fan asoslarini egallab olishlari, uning idrok etish qobiliyatlari va ma'naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash hamda rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratiladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchining ijodkorlikning sifatlarini rivojlantirishda ta'limning yordamchi shakli to'garaklarda foydalanish maqsadlidir.

Adabiyotlar:

1. Umumta'lim maktablarining milliy o'quv dasturi/ Ona tili.-T.: 2021.-170-b.
2. Мухтарова, Л. А. (2017). Boshlang'ich Ta'lim Samaradorligini Oshirishda Innovatsion Ta'lim Texnologiyalarining O'rni. In Научный Поиск В Современном Мире (pp. 119-120).
3. Munzifa Tangirova, & Lobar Mukhtarova. (2023). Ways of reading literacy development in primary school pupils. European Scholar Journal, 4(2), 88-89.
4. Abdimannabovna, M. L. (2022). Opportunities for an Interdisciplinary Integrated Approach to Improving the Culture of Environmental Safety. Eurasian Scientific Herald, 7, 7-12.
5. Abdimannabovna, M. L. (2021). Possibilities of an Integrative Approach to the Formation of A Culture of Environmental Safety. European Scholar Journal, 2(11), 43-44.
6. Mukhtarova, L. A. (2021). The Use of Innovative Educational Technologies in The Formation of a Culture of Environmental Safety. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(10), 792-797.

РЕЗИМЕ

Maqolada o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarni kreativ va mustaqil fikrlashga o'rgatish hamda o'quvchilarni ongli, to'g'ri va ifodali o'qishga o'rgatish, ularda kitobxonlik va nutq madaniyatini hamda mustaqil fikrlash qobiliyati shakllantirish haqida bayon qilingan. Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilar ijodkorligini oshirish metodikasi haqida ma'lumotlar bayon etilgan.

РЕЗИМЕ

В статье описано, как на уроках читательской грамотности научить учащихся мыслить творчески и самостоятельно, как научить учащихся читать осознанно, правильно и выразительно, как развивать культуру чтения и речи, а также умение мыслить самостоятельно. Представлена информация о методе повышения творческой активности учащихся на родном языке и читательской грамотности на занятиях начальных классов.

SUMMARY

The article describes how to teach students to think creatively and independently in reading literacy classes, and how to teach students to read consciously, correctly and expressively, and how to develop the culture of reading and speech, as well as the ability to think independently. Information about the method of increasing students' creativity in the mother tongue and reading literacy classes of the primary grade is presented.